

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI



INSON RESURLARI VA MAHALLA
TARAQQIYOTINI BOSHQARISH
OLIV INSTITUTI

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi bukalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Biznesni baholash" fani bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan.

Mazku fanning maqsadi talabalarni biznesni yuritishda, biznesni boshqarish, biznesni baholash faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida bilimga ega bo'lishi, xususan, biznesni tashkil qilishning yuridik asoslari va tartibi, biznesni takmil qilish hamda biznesni baholash tartibi kabi masalalarini o'rganish hamda egallagan bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Ushbu fan "Biznesni baholash" dcb nomlab, unda sizga talabalarga O'zbekiston Respublikasida biznes faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari va tashkiliy asoslari; ushbu sohaga malakaviy va axloqiy talablari; biznesni baholash tushunchasi va raqamlashtirish riski; biznesni strategik rejalashtirish; biznesni baholash tizimini o'rganish hamda baholash; dalillar; ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rganishdan iborat

Fan dasturida fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni, ta'lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.


Mualifi tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak bankirlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalanishga tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU

«Raqamli iqtisodiyot» kafedras

dotsenti, texnik fanlari nomzodi

G. M. Porsayev



Ro'yxatga olindi: № BD- 60410600	“TASDIQLAYMAN” SamDU rektori: R.I. Xalmuradov 2024 yil “10”
-------------------------------------	--

“BIZNESNI BAHOLASH” FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410900 – Biznesni boshqarish

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS – Kreditlar
BIZBAH	2026-2027	VI	5
Fan/modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek	6	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Umumiy (soat)
	Biznesni baholash	64	86
			150

Fanning maqsadi (FM)	
I. FANNING MAZMUNI	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni biznesni yuritishda, biznesni boshqarish, biznesni baholash faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida bilimga ega bo'lishi, xususan, biznesni tashkil qilishning yuridik asoslari va tartibi, biznes takil qilish hamda biznesni baholash tartibi kabi masalalarini o'rgatish hamda egallagan bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.
FM1	Fanning vazifasi – talabalarga O'zbekiston Respublikasida biznes faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari va tashkiliy asoslari; ushbu sohaga malakaviy va axloqiy talablari; biznesni baholash tushunchasi va raqamlashtirish riski; biznesni strategik rejalashtirish; biznesni baholash tizimini o'rganish hamda baholash; dalillar; ekspert ishlaridan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)	II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:
	Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)
M1	Biznesni baholash faniga kirish. Biznesni baholash faniga kirish. Fanning nazariy asoslari. Fanni o'rganishning ahamiyati va zaruriyati. Biznesni baholash fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanni o'rganishda boshqa fanlarning ahamiyati, zamonaviy raqamli texnologiyalarning o'imi. Xalqaro biznesni boshqarishda biznesni baholashni tashkil qilish nazariyasi.
M2	“Biznesni baholash” fanining predmeti va mazmuni. “Biznesni baholash” kursiga kirish. Fanning mohiyati va vazifalari, talabalar bilishi lozim bo'lgan asosiy tushunchalar. Baholash faoliyatining sub'ekti va ob'ektlari. Korxona - baholashning standart ob'ekt sifatida. Biznes baholashning spesifikasi. Baholash ob'ektlarining qiymat turlari.

	Baholash maqsadi va qiymat turlari. Bozor qiymati. Ob'ekt o'mini bosish qiymati. Ob'ektni qayta ko'rish narxi. Investitsion qiymat. Likvidatsion qiymat. Haqiqiy bozor narxi. Biznes qiymatiga ta'sir qiluvchi omillar. Biznesni baholash tamoyillari. Foyda keltirish qobiliyati. Sarmoya qilish tamoyili.
M3	Baholash faoliyatini tartibga solish. Majburiy baholashni o'tkazish xohlatlari. Baholash faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi. Ob'ektni baholash hakida shartnoma tuzilishi. Baholash shartnomasi shartlari. Baholash faoliyatini davlat tomonidan boshqarish yo'nalishlari. Shartnoma tuzishning asosiy tamoyillari. Qonunchilik tamoyili. Erkinlik tamoyili. Baholash shartnomasining tarkibiy. Shartnoma tomonlarining huquq va majburiyatlari. Fuqarolar javobgarligini sug'urtalash. Baholovchilarning majburiyatlari. Yuridik javobgarlikning huquqiy asoslari. Operativ sanksiyalar. Shaxsiy javobgarlik chorolari. Mulkiy javobgarlik chorolari.
M4	Pul oqimlarini davriy baholash. Pul oqimlari. “Murakkab foiz” funksiyasi. Murakkab foizlar operatsiyalari. “Diskontlash” funksiyasi. Diskontlash uslublari va stavkalari. “Annuitetning joriy qiymati” funksiyasi. Oddiy va avans annuitet. “Annuitetning kelgusi qiymati” funksiyasi. “Kredit koplashning davriy tulov” funksiyasi. Pulning davriy qiymati. Kelgusi va joriy qiymat. Jang'arma fondining davriy to'lov qiymati. Turli xil funksiyalarining o'zaro bog'liqligi. Pulning ikkilamchiligning empirik qoidalari. Jang'armaning ikki baravar ko'payish qoidasi. Investitsiyadan olinadigan daromad foiz stavkasi.
M5	Korxonani baholashda daromadli yondashuv usuli. Buxgalteriya hisobotini normalashtirish (me'yorga solish). Moliyaviy hujjatlarni vertikal va gorizonttal taxlili. Pul oqimini prognozlash. Diskontlash stavkasi. Pul oqimlarini diskontlash uslublari. Daromadlarni kapitalizatsiyalash usuli. Pul oqimlarining diskontlash uslubli orqali korxonaning baholashning asosiy bosqichlari. Pul oqimlar modelini tanlash. Xarajatlar bashorati va taxlili. Sarmoyalar bashorati va taxlili. Diskontlash foiz stavkasini tanlash. Bashorat muddatining uzviyligi. Daromadlar bashorati va taxlili. Investitsiyalarni bashorat qilish. Kelgusi pul oqimlarini joriy qiymati. Kapital aktivlarning bahosi.
M6	Iqtisodiy foyda konsepsiyasiga asoslangan baholash. Qiymatni boshqarish konsepsiyasi. Qiymat kursatkichlari va faktorlari. Iqtisodiy qo'shilgan qiymat (EVA-Economic Value Added). Iqtisodiy qo'shilgan qiymat qo'llanilishi va mohiyati. Aksionerlik qo'shilgan qiymat (SVA-Shareholder Value Added). Aksionerlik qo'shilgan qiymatining mohiyati va kullanishi (SVA). YeUAning SVARA nisbatan qiyosiy ustunliklari. SVAhh EVARA nisbatan ustunliklari. SVA va

	YeUAning foydalanishdagi cheklovlar.
M7	Korxona qiymatini boshqarish usullari. Sof opsiya foyda. Kapitalning urta xisob qiymati. Investitsiya kilingan kapital. Xususiy kapital rentabelligi. Xususiy kapital qiymati. EVA kursatkichini aniklaydigan omillar. EVA kursatkichi asosida kompaniyani baholash. Kompaniya narxini EVA kursatkich orkali boshqarish. EVA kursatkichi asosida kompaniyani baholash. EVA kursatkichini aniklaydigan omillar.
M8	Biznesni baholashning qiyosiy yondashuv usuli. Qiyosiy yondashuvning mazmuni. O'xshash korxonalar tanlovining kriteriyalari. Muhim narx multiplikatorlari va ularning xususiyatlari. Qiyosiy yondashuvning umumiy tavsifnomasi. Analog-korxonalar tanlovining muhim tamoyillari. Soha o'xshashliklari. O'sish istiqbollari. Moliyaviy risk. Menajment sifat darajasi. Narx multiplikatorlarining tavsifnomasi. Qiymatning umumiy qiymatini shakllantirish. Qiyosiy yondashuvda matematik usullarni qo'llash. Analog kompaniyalar uslub. Bitim yoki sotuv usuli. Soha koeffitsientlar uslub. Analog korxona usuli orqali baholashning bosqichlari. Bozor va moliyaviy informatsiyadan foydalanish. Baho-foydali multiplikatori. Baho-dividendlar multiplikatori.
M9	Biznesni baholashning xarajatli yondashuv usuli. Sof aktivlar uslub. Ishlab chiqarish materiallar zahirasini baholash usullari. Ishlab chiqaruvchi ko'chmas mulk bahosi. Asbob va uskunalar bahosi. Nomoddiy aktivlar bahosi. Moliyaviy quyilmalar bahosi. Likvidatsion (tugatish) qiymat usuli. Korxona ko'chmas mulkning asoslangan bozor qiymatini aniqlash. Daromadlarni kapitallashtirish usuli. Kumulyativ ko'rish uslub. Mashina va asbob-uskunalar bozor qiymatini baholash. Nomoddiy aktivlar qiymatini baholash. Tovar belgisi qiymatini baholash. Moliyaviy ko'yilmalar bozor qiymatini baholash. Kapitalizatsiya foiz stavkasini kapital xarajatlarni xisobga olib aniqlash uslub. Bevosita kapitalizatsiya uslub. Yalpi daromad multiplikatori.
M10	Aksiyalarning nazoratdagi va nazoratdan tashkari paketlar qiymatini baholash. Nazoratli va nazoratsiz (minoritar) qiymatli qog'ozlar paketi haqida tushuncha. Nazoratli paketlarning qiymatini baholash. Nazorat uchun mukofot, likvidlik yetarli bo'lmagan va nazoratsiz paketlar uchun chegirmalar. Nazoratli paketlar qiymatini baholash. Nazoratli paketlar qiymatini baholashning yondashuvlari: «yuqoridan-quyiga», gorizontol, «quyidan-yuqoriga». Nazorat, paketning nazoratsiz xususiyatiga chegirma va likvidlikning yetishmasligi uchun mukofot. Qiymatning umumiy miqdorining topilishi. Baholash usullarini tanlash bosqichlari. Jami paketlar qiymatini baholash bosqichlari. Likvidlik past bo'lgan qiymatli qog'ozlar uchun chegirma. Matematik o'lash uslub.
M11	Investitsion loyihalarni baholash.

	Baholashning oddiy usullari. Murakkablashgan usullar. Loyihaning ko'planish davri (muddati). Daromadlarning sof joriy qiymati. Loyihaning daromadchilik (rentabellik koeffitsienti) stavkasi. Loyiha daromadlilikning ichki stavkasi. Daromadlilikning o'zgartirilgan stavkasi. Moliyaviy menejmentning daromadchilik stavkasi. Daromadlilikning xavfsiz likvidlik stavkasi. Investitsion loyiha bo'yicha xarajalar summasi. Daromadlilikning «aylanma» stavkasi. O'zgartirilgan pul oqimi. Xavfsiz likvid foiz stavkasi miqdori. Investitsion jozibadorlikni aniqlash.
M12	Qimmatli qog'ozlar qiymatini baholash. Qimmatli qog'ozlar qiymatining asosiy ko'rinishlari. Nominal qiymat. Balans yoki buxgalterlik qiymati. Bozor yoki kurs qiymati. Qimmatli qog'ozlarning haqiqiy yoki ichki qiymati. Adolatli bozor qiymati. Likvidatsion qiymat. Obligatsiyani baholash. Obligatsiya narxi va foiz stavkalari. Foiz stavkalarining determinantlari. Obligatsiya emissiyasi. Daromadlilikning risksiz stavkasi. Risk uchun qo'shimcha mukofot. Muddatsiz obligatsiyalarni baholash. Foizli risk. Korporativ defolt riski. Kompaniyaning kredit reytingi va kompaniyaning investitsion reytingi. Obligatsiyalarning alohida xarakteristikasi va bahoning belgilanishi samarasi. Aksiyalarni baholash. Imtiyozli aksiyalar. Oddiy aksiyalar. Fundamental va texnik taxil. Baholashning balans usuli. Diskontlangan dividendlar asosidagi qiymat. Pul oqimlarini kapitallashtirish va diskontlashtirish asosidagi qiymat. Gordon modeli. Fyuchers, forward va opsiyon shartnomalarni baholash. Savdo fyuchers shartnomalarining institutsional xarakteristikasi. Fyuchers shartnomalari bahosini belgilash.
M13	Zamonaviy ish joylarini tashkil etish va barqarorlikni ta'minlash. Tashqi iqtisodiy faoliyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati. Korxonalar bozor bozorlarga chiqishida raqamli boshqaruv usullari va boshqaruv texnologiyalarining vazifalari.
M14	Biznesda barqarorlik: Yashil kelajak uchun foydali strategiyalar. Korxona tashqi faoliyatining samaradorligini oshirishda raqamli boshqaruvning ta'siri. Xalqaro munosabatlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyoti va tajribalari.
M15	Investitsion loyihalarni baholash. Baholash amaliyotida investitsion loyihalar samaradorligi ko'rsatkichini qo'llashning hisob-kitob tartibi va o'ziga xosligining mohiyati shundaki, uni timsiz o'rganib turish kerak. Bu, bir tarafdin, investitsion loyiha sifatida yoki baholanayotgan mustaqil ob'yekt, yoki xarajatga oid yondashuv bilan ajratilgan xususiylik elementlaridan biri sifatida mashina va asbob - uskunalar, intellektual mulk va boshqalarga asoslanadi.
M16	Xorijiy investitsiyalarning ma'zmoni va ahamiyati. Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsiya faoliyatini jadallashtirish, ishlab chiqarishni

	modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini amalga oshirishda xorijiy investitsiyalar, avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet el investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillar.
III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)	
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
S1	Biznesni baholash faniga kirish.
S2	"Biznesni baholash" fanining predmeti va mazmuni.
S3	Baholash faoliyatini tartibga solish.
S4	Pul oqimlarini davriy baholash.
S5	Korxonani baholashda daromadli yondashuv usuli.
S6	Iqtisodiy foyda konsepsiyasiga asoslangan baholash.
S7	Korxona qiymatini boshqarish usullari.
S8	Biznesni baholashning qiyosiy yondashuv usuli.
S9	Biznesni baholashning xarajatli yondashuv usuli.
S10	Aksiyalarning nazoratdagi va nazoratdan tashkari paketlar qiymatini baholash.
S11	Investitsion loyihalarni baholash.
S12	Kimmatli qog'ozlar qiymatini baholash.
S13	Zamonaviy ish joylarini tashkil etish va barqarorlikni ta'minlash.
S14	Biznesda barqarorlik: Yashil kelajak uchun foydali strategiyalar.
S15	Investitsion loyihalarni baholash.
S16	Xorijiy investitsiyalarning ma'zmoni va ahamiyati.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Biznesni baholash" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejas

Nö	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Biznesni baholash faniga kirish.
2.	"Biznesni baholash" fanining predmeti va mazmuni.
3.	Baholash faoliyatini tartibga solish.
4.	Pul oqimlarini davriy baholash.
5.	Korxonani baholashda daromadli yondashuv usuli.
6.	Iqtisodiy foyda konsepsiyasiga asoslangan baholash.
7.	Korxona qiymatini boshqarish usullari.
8.	Biznesni baholashning qiyosiy yondashuv usuli.
9.	Biznesni baholashning xarajatli yondashuv usuli.
10.	Aksiyalarning nazoratdagi va nazoratdan tashkari paketlar qiymatini baholash.

11.	Investitsion loyihalarni baholash.
12.	Kimmatli qog'ozlar qiymatini baholash.
13.	Zamonaviy ish joylarini tashkil etish va barqarorlikni ta'minlash.
14.	Biznesda barqarorlik: Yashil kelajak uchun foydali strategiyalar.
15.	Investitsion loyihalarni baholash.
16.	Xorijiy investitsiyalarning ma'zmoni va ahamiyati.
17.	IoT texnologiyasiga asoslangan aqlli metallni aniqlash tizimini loyihalash va ishlab chiqish.
18.	Barqaror iqtisodiy o'sish uchun B2B marketing strategiyalariga texnologik taraqqiyotning ta'siri.
19.	Biznes jarayonlarini avtomatlashtirishning afzalliklari.
20.	Texnologik noaniqlik davrida innovatsiyalar va barqaror ishlash uchun muhim qobiliyat.

"Biznesni baholash" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma'lum hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, auditni o'rganishda fanning biror bir mavzusini to'laroq o'zlashtiradi va mavzu belgilangan shaklda bajariladi. Mustaqil ishni bajarishdan maqsad, talabaning o'qishi davomida olgan bilimni mustahkamlash, chuqurlashtirish va umumlashtirishdan iboratdir. Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni: talabalar mustaqil ishlari mavzulari kelgusida bajariladigan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari mavzulari bilan uzviylikda bajariladi. Mustaqil ta'lim uchun o'quv va ishehi o'quv rejada 88 soat ajratilgan. Ushbu soat talabaning amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi, oraliq nazoratlarda, yakuniy nazoratda va boshqa mustaqil shug'ullanishini o'z ichiga oladi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Biznesni baholash turlari va shakllari;
- Biznesni baholash metodlari;
- Biznesni baholashning professional xizmatlari;
- Biznesni baholash kasbiga malakaviy va axloqiy talablar;
- Biznesni baholash xususiyatlari **haqida tasavvurga ega bo'lishi**;
- Biznesni baholash tekshiruvini o'tkazish usullarini;
- Biznesni baholashning ishehi hujjatlarini;
- Biznesni baholashda tahliliy amallarni qo'llashni **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- Biznesni baholashning muhimlik va risk darajalarini aniqlash;

	• Biznesni baholashni o'rganish va baholash; • Biznesni baholashni xususiyatlarini o'rganish; • Biznesni baholash ish tajribalaridan foydalanish; • Ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; • Biznesni baholash rejalashtirish; • Biznesni baholashdan foydalanish; • Biznesni baholashni tashkil qilish; • Biznesni baholashni tashkil qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalalar; • interfaol keys-stadilar; • <i>munozara</i>, • <i>o'z-o'zini nazorat</i>. • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar • Ko'chma dars mashg'ulotlari
5.	VII. Kreditni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR: 1. L.S.Zoyirov, U.K.Muxtorova, S.K.Qosimova "Biznes qiymatini baholash" o'quv qo'llanma Toshkent-2019.-224b. 2. A.N.Rahmonov, N.M.Umurzakova, M.Tadjibayeva "Biznes huquqi" o'quv qo'llanma Toshkent-2021.-264b. 3. K.Ahmadjonov, I.Yakubov "Audit asoslari" darslik Toshkent-2010.-288b. 4. I.R.Toymuxamedov "Bank va moliyaviy texnologiya" darslik Toshkent-2022.-306b. 5. K.Z.Xomitov, S.K.Qosimova "Ko'chmas mulk qiymatini baholash" o'quv uslubiy qo'llanma Toshkent-2017.-121b.	
QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR: 1. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.	

2.	A.Sh., Bekmuradov A.A., Musaliyev Sh.I. Xashimxodjayev "Axborot biznesi": O'quv qo'llanma. T.: «IQTISODIYOT», 2019.-160 b.
3.	Управление бизнесом в цифровой экономике: вызовы и решения / под ред. И.А.Аренкова, Т.А.Левиной, М.К.Ценжарик, Е.Г.Черновой. СПб.: Изд-во С.-Петербурга, ун-та, 2019.-360 с.
AXBOROT MANBALARI:	
1.	https://president.uz/uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2.	https://parliament.gov.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti
3.	https://gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy portal
4.	https://www.imv.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti
5.	www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti.
6.	https://soliq.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti
7.	https://www.lex.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.
7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil <u>14</u> <u>iyul</u> dagidagi <u>1</u> -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: M.M.Rabbimov. - Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi assistenti. Z.T.Bakayev. - Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.f.d., dotsent.
9.	Taqrizchilar: G'.M.Porsaeв – SamDU, «Raqamli iqtisodiyot» kafedrasi dotsenti, texnik fanlari nomzodi. +998 90 743 21 76 L.Maxmudov – SamDU, «Real iqtisodiyot» kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. +998 97 913 60 19

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi



Z.T.Bakayev
Sh.D.Djurakulov

Sh. Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
I-prorrektor:



A. S. Soleyev

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Raqamli iqtisodiyot kafedrasi dotsenti Z.T.Bakayev muallifligida tayyorlangan "Biznesni baholash" fanidan tuzilgan fan dasturiga (tushqi)

TAQRIZ

Ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun mo'ljallangan bo'lib, unda "Biznesni baholash" fani bo'yicha o'zlashtirilishi lozim bilim, ko'nikma va malakalar keltirilgan.

Mazku fanning maqsadi talabalarni biznesni yuritishda, biznesni boshqarish, biznesni baholash faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlar to'g'risida bilimga ega bo'lishi, xususan, biznesni tashkil qilishning yuridik asoslari va tartibi, biznes takil qilish hamda biznesni baholash tartibi kabi masalalarni o'rganish hamda egallagan bilimlari, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Ushbu fan "Biznesni baholash" deb nomlanib, unda sizga talabalarga O'zbekiston Respublikasida biznes faoliyatini tashkil qilishning huquqiy asoslari va tashkiliy asoslari; ushbu sohaga malakaviy va uxloqiy talablari; biznesni baholash tushunchasi va raqamlashtirish riski; biznesni strategik rejalashtirish; biznesni baholash tizimini o'rganish hamda baholash; dalillar; ekspert ishlardan va boshqa auditorlik tashkiloti ma'lumotlaridan foydalanish haqida nazariy-amaliy bilimlarni o'rgatishdan iborat

Fan dasturida fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mazmuni, ta'lim texnologiyalari va metodlari, mustaqil ishning tashkil etish shakli va mazmuni, foydalaniladigan asosiy hamda qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Muallif tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi 60410600 – Bank ishi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak bankirlarning ish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga dastur hozirgi kun talablari darajasida yozilgan va uni amalda foydalanishga tavsiya etaman.

Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti, Real iqtisodiyot kafedrasi
dotsenti, iqtisodiyot fanlari
bo'yicha falsafa doktori

I. Maxmudov

